

XALQARO MOLIYAVIY HISOBOTNI SHAKLLANTIRISHDA BUXGALTERIYA HISOBI OBYEKTLARINING FOYDA SOLIG`IGA TA`SIRI

Pashaxodjayeva Dildora Djabborxonovna- SamISI dotsenti PhD.
Oxunjanova Mohchehra Xolmurot qizi- SamISI magistranti

Annotatsiya. Maqolada buxgalteriya hisobining xalqaro integratsiyalashuvi sharoitida foyda solig`i bazasiga ta`sir etuvchi omillar, soliq bazasini to`g`ri shakllantirish masalalari yoritilgan.

Kalit so`zlari: «Vaqtinchalik farqlar» «soliq bazasi» «chegiriladigan xarajatlar» daromadlar, xarajatlarning soliq solish bazasiga to`g`ri olib borilishi, foyda solig`i bo`yicha imtiyozlar berishni takomillashtirish

Абстрактный. В статье освещены факторы, влияющие на базу налога на прибыль в условиях международной интеграции бухгалтерского учета, вопросы правильного формирования налоговой базы.

Ключевые слова: «Временные разницы» «налоговая база» «вычитаемые расходы» правильное отнесение доходов и расходов в налоговую базу, улучшение льготы по налогу на прибыль

Abstract. In the article, the factors affecting the profit tax base in the conditions of international integration of accounting, the issues of the correct formation of the tax base are covered.

Key words: "Temporary differences" "tax base" "deductible expenses" correct transfer of income and expenses to the tax base, improvement of benefits on profit tax

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan keng qamrovli iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda avvalambor soliq siyosati va buxgalteriya hisobini yanada takomillashtirish, soliqlarning turlari va ularning amal qilish mexanizmlarini soddalashtirish, mamlakatimizga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va investorlarga sof foydaga erishishda foyda solig`i yukini kamaytirish va korxonalarda buxgalteriya hisobini xalqaro standartlarga moslashtirish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Shu sababli «soliq solinadigan foyda», «chegiriladigan xarajatlar», «chegiriladigan soliq majburiyati» kabi ko`rsatkichlarni olib keluvchi omillarni soliq va korxonalar hisobotlari o`rtasida tafovut paydo bo`luvchi «vaqtinchalik farq» kabi ko`rsatkichlarni moliyaviy hisob va hisobotda aks ettirishning amaldagi tartibini moliyaviy hisob va hisobotning xalqaro standartlar me`yorlariga moslashtirish vazifalari qo`yilgan. Shu nuqtai nazardan foyda solig`i hisobini xalqaro standartlar me`yorlariga moslashtirish va muvofiqlashtirish hamda hisob ishlarini yanada soddalashtirish maqsadida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xalqaro moliyaviy hisobotni shakllantirishda buxgalteriya hisobining obyektlarining foyda solig`iga ta`siri shuningdek, soliqqa tortiladigan bazani shakllantirishga ta`sir etuvchi omillar haqida

va hisob masalalarini yoritishda xorijlik hamda mamlakatimizdagi olimlar tomonidan bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Bu ko'rsatkichlar respublikamizda chop etilgan soliq solish hamda buxgalteriya hisobiga oid adabiyotlar va ilmiy – iqtisodiy jurnallarda ham o'z aksini topgan, shuningdek manbalarda yuqorida nomlari qayd etilgan ko'rsatkichlarga turlicha ta'rif- tavsiflar berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada analiz va sintez, induksiya va deduksiya, sabab va oqibat, zamon va makon, tizimli yondashuv, iqtisodiy tahlilning an'anaviy, iqtisodiy, tadqiqot obyektlari va olingan natijalarni bayon qilish kabi usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Hozirgi kunda har qanday foyda solig'ini to'layotgan korxonalar foydasini soliqqa tortishda soliq to'lovchi yuridik shaxslarni va davlat manfaatlarini ko'zlagan holda foyda solig'ining o'zgarishiga shuningdek ularni hisobot va hisobda to'g'ri aks ettirilishida albatta xalqaro standartlarga asoslanib ish yuritmoq hukumat va zamon talabi hisoblanadi.

Buxgalteriya hisobining xalqaro integratsiyalashuvi sharoitida foyda solig'i bazasiga ta'sir etuvchi buxgalteriya hisobining obyektlariga korxonalar moliyaviy natijalar to'g'risidagi moliyaviy hisobotning II shaklida keltirilgan daromadlar, xarajatlar va soliq bazasiga qayta qo'shiladigan xarajat summaları katta rol o'ynaydi.

Shu bilan birga korxonalar foydasini soliqqa tortishda to'lovchilar va yuridik shaxslarni manfaatlarini kafolatlash tamoyili foyda solig'iga doir turli xil yangi ko'rsatkichlarni paydo bo'lishiga, ularni hisob va hisobotda aks ettirishiga olib keldi. Ular sirasiga «kechiktirilgan soliq aktivlari» va «kechiktirilgan soliq majburiyatlari» ko'rsatkichlari ham kiradi. «Kechiktirilgan soliq aktivlari» aynan shu nomda xorijiy mamlakatlar tajribasida keng qo'llaniladi. Bizning mamlakatimizda «kechiktirilgan soliq aktivlari» aynan shu nom bilan qo'llanilmaydi. Uning o'rniga «vaqtinchalik farqlar bo'yicha muddati uzaytirilgan foyda solig'i» ko'rsatkichi ishlatiladi.

«Kechiktirilgan soliq aktivlari» va «kechiktirilgan soliq majburiyatlari» foyda solig'i bazasini hisoblashda unga chegirilmaydigan «doimiy farqlar» hamda «vaqtinchalik farqlar» deb ataladigan xarajatlarning qo'shilishi va kamaytirilishi yotadi. Bu ko'rsatkichlar korxonada amalga oshirilgan va soliq qonunchiligi talablariga ko'ra foyda solig'i bazasini hisoblashda chegirilmaydigan xarajatlarning foyda solig'i summasini, bir tomondan oshishiga bir tomondan kamayishiga olib kelishini kompleks tarzda hisoblashda vujudga keladi.

Xalqaro hisob va soliq solish amaliyotida keng qo'llaniladigan «doimiy farqlar» hamda «vaqtinchalik farqlar» mos ravishda foyda solig'i bazasiga doimiy tarzda va ma'lum davr uchun qo'shiladigan xarajatlarni bildiradi.

Hozirgi kunda xorijiy davlatlarning foyda solig'i stavkasi va soliq solish obyektini quyidagi jadvalda ko'rib chiqamiz (1- jadval).

Ushbu jadvalda mamlakatlarda foyda solig'i stavkasi bir biridan farq qilishining sababi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda soliq yuki soliq bazasiga nisbatan tabaqalashgan tarzda amalga oshirilishini ko'rish mumkin (AQSH, Qozoqiston). Qolgan davlatlarda esa turg'un foyda solig'i stavkasi qo'llanilmoqda. Shuningdek barcha davlatlarda foyda solig'ining soliq bazasi deyarli bir xil. Ammo

AQSHda soliq hisoblash usuli har bir federal, shtat va shahar bo'yicha o'z usuliga egadir. Shuningdek Turkmaniston Respublikasida ham uglivodorod qazib olishni rivojlantirish maqsadida soliq stavkasi past qilib belgilangan.

Xorijiy mamlakatlar va respublikamizning soliq tizimida qaysiki sohani rivojlantirish maqsad qilinayotgan bo'lsa shu yo'nalishda soliq yukini kamaytirishga urg'u berilmoqda. Masalan AQSH, Fransiya, Rossiya davlatlarida fermer xo'jaliklari, kichik biznes subyektlariga tabaqalashtirilgan soliq stavkalari joriy qilingan va imtiyozlar berilgan.

1-jadval

**XORIJIY DAVLATLARDA FOYDA SOLIG'IGA OID
KO'RSATKICHLAR TASNIFI**

MAMLAKAT NOMI	FOYDA SOLIG'I STAVKASI	SOLIQLARNI HISOBLASH BAZASI
AQSH	Asosiy soliq stavkasi 34% 50.000 \$ daromaddan 15%; keyingi 25.000 \$ daromaddan 25 %; 75.000 \$ daromaddan 34 %.	«Daromad minus xarajatlar» formulasi asosida sof foydadan Federal, shtat, shahar byudjetiga o'tkazilishiga ko'ra yuridik shaxslar uchun soliq stavkasi daromad miqdoriga bog'liq, har bir shtat stavka va imtiyozlarga ega
FRANSIYA	33.33 %	Korporatsiyaning yillik sof foydasidan
ROSSIYA FEDERATSIYASI	Yagona soliq stavkasi 20%	Soliq bazasi har bir turdagi daromad uchun alohida hisoblab chiqiladi
QOZOG'ISTON	Min 20% Max 30%	Korxonaning yalpi daromadidan xarajatlarni ayirib tashlangandagi summa
TURKMANISTON	20% (Uglivodorod resurslarini qazib oluvchilar uchun 8%)	Yalpi foyda minus qonuniy ajratmalar
O'ZBEKISTON	12%	Ma'lum bir davrdagi daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi farq

Hozirgi kunda yuridik shaxslar uchun soliq yukini kamaytirish maqsadida davlatimiz tomonidan bir qancha imtiyozlar berilmoqda.

Ular quyidagilar:

- ✓ Aylanmasi 1 milliard soʻmdan oshib, umumiy soliq toʻlash tartibiga oʻtgan korxonalar yil davomida foyda soligʻini 2 barovar kam toʻlaydi. Bu esa ayni kunda mamlakatimizda faoliyat koʻrsatgan 370 ming tadbirkorga yengilliklar yaratadi. Shu bilan birga tez oʻsib borayotgan yuqori salohiyatli oʻrta korxonalar sonini hozirgi 3,5 mingtadan 10 ming taga yetkizish imkoniyatlari kengayadi.
- ✓ Bu borada yana bir qulaylik 2023 yil 1 yanvardan kichikdan oʻrta biznesga oʻtgan korxonalar ikki yil davomida foyda soligʻining 20 foizini toʻlaydi.
- ✓ Tovar (xizmat) larni eksportga realizatsiya qilishdan olingan foydaga, eksportdan olingan daromadning jami daromaddagi ulushidan qatʼiy nazar, 0 foiz miqdorida soliq stavkasi boʻyicha soliq solinadi.

Bu turdagi soliq imtiyozlarini yana bir qanchasini keltirib oʻtish mumkin. Ushbu soliq imtiyozlaridan maqsad mamlakatimizda rivojlanib borayotgan korxonalarni oʻz xarajatlarini qoplashga yoʻnaltirish va yanada koʻplab ishchi oʻrinlarini yaratib qiymat yaratish, aholi bandligini taʼminlab farovon hayotga erishishdir.

Shuningdek koʻpgina korxonalarimiz uchun foyda soligʻi boʻyicha AQSH tajribasini, yaʼni tabaqalashtirilgan soliq toʻlashni qoʻllash, fermer va kichik biznes xoʻjaliklarini yanada rivojlantirish maqsadida hisoblangan soliq summasini shu biznesni yanada kengayirish va jalb qilishga yoʻnaltirsa, ishlab chiqarish sohasi yanada kengayib aholi sotib olishi lozim boʻlgan oziq –ovqat mahsulotlarining tannarxi pasayishiga olib kelinadi va pirovard maqsadimiz yurtboshimiz taʼkidlaganidek farovon hayotga erishishga amaliy dastak boʻladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Oʻzbekiston Respublikasining Soliq kodeksi –T.: «Norma» 2020.
2. Oʻzbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartlari–T.: «Norma» 2010.
3. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari
4. Urazov K.B. Moliyaviy hisob va hisobot. Oʻquv qoʻllanma.–T.: «IRNMU» 2020.
5. S.N.Toshnazarov. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. –T.: «IQTISOD-MOLIYA» 2019.
6. A.V.Vahobov, A.S.Joʻrayev. Soliqlar va soliqqa tortish. oliy oʻquv yurtlari talabalari uchun darslik. TMI. 2009.
7. D.D.Pashaxodjayeveva. Foyda soligʻi boʻyicha kechiktirilgan soliq aktivlari hisobini xalqaro integratsiyalashuvi sharoitida takomillashtirish. Maqola.2022.